



"TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFARMATSIYA: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR"

Xudoynazarova Maftuna

O'zbekiston Jahon tillari universiteti " Xorijiy til
va adabiyot" fakulteti talabasi

Fakultet: English 1

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17750639>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 24-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 28-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Raqamli transformatsiya,
masofaviy ta'lim, onlayn darslar,
raqamli platformalar,
raqamlashgan baholash tizimi,
tanqidiy fikrlash

ABSTRACT

Mazkur maqolada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangi va zamonaviy transformatsiya jarayoni, ushbu transformatsiya yaratgan imkonitatlarni, yuzaga keltirayotgan muammolar va ularga qarshi amaliy choralarni tahlil qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda, axborot resurslaridan tez va oson foydalanishda, masofaviy ta'limni rivojlantirishda, o'quvchilarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini oshirish bilan bir qatorda ularga moslashuvchan ta'lim jadvali yaratishda muhim omil bo'lmoqda. Shu bilan birga texnik vositalarning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bilim va ko'nikmalarining pastligi hamda o'quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlariga salbiy ta'siri kabi bir qancha muammolar mavjud. Maqolada ushbu muammolarni hal qilish uchun bir qator strategik yondashuvlar, jumladan, texnik sharoitlarni yaxshilash, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik ba'za bilan ta'minlash va pedagoglarni doimiy raqamli malaka oshirish kurslariga jalb qilish hamda axborot resurslaridan to'ri foydalanish yo'riqnomalarini ommalashtirish kabi choralarni ko'rib chiqadi

XXI asr raqamli texnologiyalar va keng imkoniyatlar asri bo'lib yangi davr uchun asosiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat ta'lim sohasida balki boshqa ko'plab jabhalarda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Raqamli transformatsiya - bu shunchaki ta'lim ilsohoti bo'lib qolmay, ta'lim tizimining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ularni talim jarayonida samarali qo'llashni ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga, ularga kerak bo'lgan barcha qobiliyatlarni shakllantirishga hamda zamonaviy texnologiyalar, turli raqamli tarmoqlar va xizmatlardan foydalanishga yordam beradi. Ushbu transformatsiya orqali ta'lim jabhasida nafaqat o'quvchi va talabalar balki pedagoglar ham

keng imkoniyatlarni qo'lga kiritishib bilim olish va ta'lim berish jarayonidagi foaliyatlarini yangi bosqichga olib chiqishmoqda .Maqolada raqamli transformatsiyaning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi , uning afzalliklari-yu kamchiliklari va u yuzaga keltirgan muammolarga qarshi kerakli yechimlar ko'rsatilgan.

Raqamli transformatsiyaning o'sishi va yaratgan imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalarning omma orasida jadal rivojlanishi va kun sayin ommalashuvi ta'lim tizimida katta o'zgarishlar va keskin burilishlarga turtki bo'ldi. Buyuk Britaniya ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra ,raqamli texnologiyalar talim samaradorligini o'rtacha 25% ga oshirgan (Department for education ,2023) .Bu ko'rsatkich ayniqsa COVID 19 pandimiyasi davrida keskin o'sdi va jarayonni yanada tezlashtirdi . Pandimiya davrida butun dunyo bo'ylab masovaviy ta'lim yo'lga qo'yildi va o'quvchilar onlayn tarzda ta'lim olishiga to'g'ri keldi . Garchi bu bosqichga avvaldan tayyor bo'lmagan bir qanacha mamlakatlar qatori O'zbekiston ham ta'lim tizimida raqamlashgan ta'lim sestemalarini yaratish va uni o'quvchi va talabalar orasida targ'ib etishda bir qator muammolarga duch keldi . Shu davrdan boshlab butun dunyo bo'ylab barcha jabhalarda , jumladan ,ta'lim sohasida ham raqamlashtirish keskin avj oldi . Mamlakatimiz ham bu o'zgarishlardan chetda qolmagan holda ,”Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini ishlab chiqib , ta'lim yo'nalishini moderinizatsiya qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar olib bormoqda . Mahalliy statistikalariga ko'ra ,O'zbekistonda 2024 - yil hisobida , aholining internetdan foydalanish ko'rsatkichi 93,3% ga yetgan (UzDaily.com).

Raqamli texnologiyalar ya'ni kompyuterlar , internet , mobil qurilmalar , suniy intellekt va turli elektron platformalar ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chibgina qolmay , ko'plab qulayliklarni vujudga keltirdi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanmasidan oldin , darslar ananaviy tarzda olib borilib , dars davomida o'tituvchiga asosiy ma'lumot beruvchi shaxs sifatida qaralgan.

Mustaqil ta'lim

Hozirgi kunga kelib raqamlashgan texnologiyalar tufayli o'quvchular mustaqil ta'lim olishlari , uyda o'tirgan holda individual tarzda bilim olishlari va cheksiz ma'lumotlar tizimiga tez va oson kirishlari hamda ulardan foydalanish imkoniyatlariga ega . Bunda ularga maxsus o'qituvchi yoki yordamchi kerak bo'lmaydi , ular o'zlari mustaqil tarzda mavjud resurslardan foydalangan holda ta'lim olishadi . Bu turdagi talim o'quvchilarning mustaqil fikrlash , rejalashtirish , ma'lumotlarni saralash va tahlil qilish hamda kompyuter savodxonligini oshirishga yordam beradi .

Interktiv va vizual ta'lim

O'quvchilarga mavzuni yaxshi yetkazib berish maqsadida dars davomida turli prezentatsiyalar , slaydlar , animatsiyalar va vedio darslardan foydalanish ta'lim berish jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o'quvchilarga hech qanday ananaviy daslarga qatnashmay turib , masofadan istalgan onlayn darslarga qatnasha olish imkoniyatini yaratdi. Bu jarayonni osonlashtirish maqsadida ta'lim mutaxasislari tomonidan maxsus raqamli dasturlar, platformalar va saytlar : Edu.uz ,Duolingo, Google classroom, Khan Academy , Ibrat Academy va boshqalar ishlab chiqilgan . Ushbu dasturlar orqali o'quvchilar istalgan vaqtda barcha turdagi savollariga javob topishlari va bilim olishlari imkoniyatiga ega .

Elektron ta'lim nazorati

Raqamli tizimlar orqali o'qituvchilar va o'quvchilarning oila a'zolari o'quvchilarning baholarini kuzatib borish, ularning ta'lim jarayonidagi reytingini tahlil qilish va davomatini nazorat qilish imkoniyatini qo'ga kiritishdi. Bu turdagi platformalarga

Kundalik.com - umum ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchilar o'quvchilarning darsdagi faolligi va topshiriqlarini baholab, elektron jurnalga kiritadi. O'quvchilar va ota onalar berilgan uyga vazifalar, topshiriqlar va baholarni kuzatib borishadi.

Hemis (Higher Education Management Information System) - oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarning kredit-modul asosidagi o'qish jarayoni boshqariladi va tartibda soladi. Bu dastur orqali talaba har kunlik olgan baholari, reytingi, fan jadvali, topshiriqlari, imtihon ballarini ko'rib borish imkoniyatiga egalar.

Moodle (Learning Management System - LMS) - xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo'lib, onlayn kurslar, topshiriqlar, testlar, baholash tizimi va reyting ballarini ko'rish imkoniyatini beradi.

Raqamli transformatsiyalashdagi muammolar

Texnologik tengsizlik - elektron qurilmalar va mobil aloqalarning yetishmasligi hamda ba'zi bir chekka xududlarda internet aloqasining pasligi va hatto yo'q ekanligi to'liq raqamlashtirish jarayoniga to'sqinlik qiladigan omillardan biri hisoblanib kelinmoqda.

Texnologiyalardan foydalanish borasida yetarli bilim va ko'nikmalarning yo'qligi, pedagoglarning zamonaviy texnik qurilma va elektron tizimlarni boshqara olmasligi bu jarayonni qiyinlashtiradi.

Axborot xafsizligi - ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalana olmaslik, turli xil saytlar va internet tarmoqlarida ko'p uchrab turadigan yolg'on xabarlarni tahlil qila olmaslik oqibatida aldanib qolish va noto'g'ri oqimlarga qo'shilib ketish xavfi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga negativ ta'siri shuki, hozirgi kunda yoshlarning ko'pchiligi ayniqsa o'quvchi va talabalar uyga vazifalar, maxsus topshiriqlarini bajarishda sun'iy intellektga va internet saytlagiga suyanib qolib, o'z salohiyatlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlaridan foydalanishmayaptilar. Bu esa ularning ongiga, xotirasiga va mustaqil fikrlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yechimlar va takliflar

O'qituvchilarni doimiy maxsus malaka oshirish kurslariga, raqamli texnologiyalarni yaxshiroq o'rganish va ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalana olishlari uchun ularni qo'shimcha o'quv kurslariga jalb qilish darslarni yanada interaktiv tashkil qilish va o'quvchi va yoshlarni texnologiyadan to'g'ri foydalanish bilim - ko'nikmalarini oshiradi. Shu tufayli raqamlashgan transformatsiyaning samaradorligini sezilarli darajada o'sadi.

Maktab va Oliy talim muassasalarida zamonaviy texnikalarning sonini ko'paytirish va yangi zamon talabiga mos texnologiyalar va tezkor internet tarmoqlari bilan ta'minlash ta'lim berish va bilim olish jarayonini yaxshilaydi.

Axborot xafsizligini ta'minlash uchun o'quvchi va talabalar o'rtasida kiber xafsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni sir tutish va internet tarmoqlarida to'g'ri foydalanish haqida maxsus seminarlar tashkil etish axborot xafsizligini ta'minlaydi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish va suniy intellektga bo'lanib qolmasliklari uchun pedagoglar kreativ va interaktiv usullarda foydalangan holda o'quvchilarga

o'z yaratuvchanlik qobiliyatini ishga soladidan tanqidiy fikrlashga va shaxsiy fikrlarini talab qiladigan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi .

Xulosa

Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim berish va bilim olish sifatini oshirish bilan cheklanib qolmay o'quvchi va o'qituvchilarga qulay va moslashuvchan ta'lim jadvali , cheksiz ma'lumotlar manbayiga osongina kirish va foydalanish , shaffof va adolatli ta'lim nazorati kabi ko'plab imkoniyatlarga yo'l ochdi .

Shu bilan birga bir qancha texnik va ijtimoiy muammolar ; texnologiyalarning yetishmasligi , yetarli zamonaviy texnologik bilimlarning yo'qligi , o'quvchilarning aqliy foaliyatiga zarar yetkazish xavfi mavjud .

Garch raqamli transformatsiya jarayonida yuqorida takidlangan muammolar mavjud bo'sa ham , jadalal rivojlanib borayotgan texnologiyalar davri talablariga mos harakat qilgan holda o'quvchi va pedagoglarga kerakli bo'lga zamonaviy texnik bilimlarni berish va raqamli texnologiyadan to'g'ri va samarali foydalanish , ular berayotgan ma'lumotlarni tahlil qilishni o'gatish ta'lim tizimini yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "The Role of Technology in Education: Enhancing Learning Outcomes and 21st Century Skills " Dr. Lohans Kumar Kalyani Assistant Professor, Department of b.Ed., Shri Lal Bahadur Shastri Degree, College, Gonda (U.P) Email: lohanskalyani@gmail.com
2. "Network Information Technologies as a Basis of New Educational Paradigm "Oleg Golubev*, Vladimir Testov Vologda State University, 15 Lenina Street, Vologda, 160000, Russia
3. Elmurzaevich-TSPU, M. O., & Rustamovich, A. J. (2019). "The benefits of using information technology in the education system". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)
4. XashimovaDiyora PaxritdinovnaTDIU, Raqamli iqtisodiyot kafedراس dotsent "Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya: Muammolar , imkoniyatlar ,va istiqbollar" <http://dgeconomy.tsue.uz/2025No2aprel-iyun>